Qabul qilindi: 19-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 26-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 03-noyabr 2026-yil

IJTIMOIY VA KASBIY PROFILLARNING LINGVISTIK KESISHUV NUQTALARI XUSUSIDAGI BA’ZI MULOHAZALAR

Mirzaaxmedova Yulduzxon Anvarovna

ADChTI mustaqil izlanuvchisi (DSc), “University of economics and pedagogy” NOTM Xorijiy tillar kafedrasi v.b.professori, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu tezisda Ijtimoiy va kasbiy profillarning lingvistik kesishuv nuqtalari xususidagi ba’zi mulohazalar xusisidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Ijtimoiy profil bilan umumiy jihatlar, xususan, xoslanish, baholash va jamoaviylik mavjud bo‘lsa-da, kasbiy profilning asosiy semantik markazi faoliyat sohasi, professional bilim, kompetensiya va institutsional mansublik bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: til, ijtimoiy mansublik, komment mazmuni, kasbiy muhit, shaxs, baholash strategiyasi, munosabat natijalari.

Ijtimoiy va kasbiy mansublik nutqda doimo bir-biridan ajralgan holda namoyon bo‘lmaydi. Aksincha, real kommunikativ vaziyatlarda shaxsning kasbiy maqomi uning ijtimoiy, milliy, hududiy yoki institutsional mansubligi bilan birgalikda ifodalanadi. Shu sababli korpus materiallarini tahlil qilishda markerlarni faqat “ijtimoiy” yoki “kasbiy” guruhga qat’iy ajratish ayrim murakkab kommunikativ holatlarning mazmunini to‘liq ochmaydi. Ayniqsa, kasbiy termin + jamoaviy xoslanish + baholash, institutsional birlik + ijtimoiy qadriyat, kasbiy murojaat + hurmat kabi birikmalar ikki profilning kesishuvini aniq ko‘rsatadi. Bunday kesishuvning birinchi ko‘rinishi kasbiy va jamoaviy xoslanishning birgalikda qo‘llanishida kuzatiladi. Masalan, *universitetimiz, fakultetimiz, kafedramiz, hamkasblarimiz, talabalarimiz* kabi birliklarda kasbiy muhitni bildiruvchi leksik qatlam birinchi shaxs ko‘plik egalik shakli bilan birlashadi. Universitet yoki fakultet birliklari institutsional-kasbiy muhitni bildirsa, *-imiz* shakli so‘zlovchining ushbu muhitga daxldorligini ifodalaydi. Natijada bitta birlikning o‘zida institutsional referens va jamoaviy

mansuvlik mujassamlashadi. Masalan: *Universitetimiz talabalari xalqaro tanlovda yaxshi natija ko‘rsatdi.* Ushbu gapda *universitetimiz* kasbiy-institutsional mansublikni, *talabalari* ta’limiy-kasbiy qatlamni, *yaxshi natija* esa ijobiy baholashni ifodalaydi. Agar bunday mazmun *faxrlanamiz, jamoamiz uchun katta yutuq* kabi birliklar bilan davom ettirilsa, kasbiy mansublik ijtimoiy birdamlik mazmuni bilan yanada mustahkamlanadi. Demak, kasbiy faoliyatga oid axborot ayni paytda jamoaviy “biz” pozitsiyasini ham shakllantiradi.

Ikkinchi kesishuv kasbiy mansublik va ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasida yuzaga keladi. Kasbiy faoliyat ko‘pincha jamiyat tomonidan ma’lum qadriyatlar bilan baholanadi. Ta’lim, tibbiyot, ilm-fan, huquq, davlat xizmati kabi sohalarga oid izohlarda kasbiy faoliyatning o‘zi bilan birga mas’uliyat, halollik, adolat, insonparvarlik, hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlar ham ifodalanadi. Masalan, *yaxshi shifokor, fidoyi ustoz, halol mutaxassis, mas’uliyatli xodim* kabi birikmalarda kasbiy nomlash va ijtimoiy baholash birlashadi. Bu holatda sifatlovchi komponentning semantik vazifasi alohida ahamiyatga ega. *Shifokor, ustoz, mutaxassis kabi birliklar kasbiy maqomni bildiradi, yaxshi, fidoyi, halol, mas’uliyatli* kabi birliklar esa shu maqomga nisbatan ijtimoiy-me’yoriy bahoni ifodalaydi. Shunday qilib, kasbiy nominatsiya + ijtimoiy qadriyat modeli yuzaga keladi.

Uchinchi kesishuv kasbiy murojaat va ijtimoiy-pragmatik baholash orqali namoyon bo‘ladi. *Ustoz, professor, doktor, muallim, hamkasb* kabi birliklar kasbiy maqomni bildirishi bilan birga, kommunikativ vaziyatga qarab hurmat, yaqinlik, rasmiylik yoki ijtimoiy masofani ham ifodalashi mumkin. Masalan, *Rahmat, ustoz!* shaklida ustoz kasbiy maqomni bildirsa, murojaatning o‘zi hurmat va minnatdorlikni ham ifodalaydi. Demak, bu yerda kasbiy markerning ijtimoiy-pragmatik komponenti kuchayadi.

To‘rtinchi kesishuv ta’limiy va ijtimoiy identifikatsiya munosabatida ko‘rinadi. Korpusda VAL_EDU guruhining 216 ta izohda qayd etilgani ta’limiy mazmunning alohida qatlam sifatida mavjudligini ko‘rsatadi. Ta’limga oid birliklar ko‘pincha kasbiy rivojlanish, bilim, ustoz-shogird munosabati va institutsional mansublik bilan bog‘liq. Biroq *ustozimiz, talabalarimiz, universitetimiz* kabi birliklarda ta’limiy mazmun ijtimoiy xoslanish bilan birlashadi. Shuning uchun ta’limiy markerlarning ayrim qo‘llanishlari ikki profilning

kesishuv zonasiga kiradi.

Beshinchi kesishuv milliy mansublik va kasbiy faoliyat munosabatida kuzatiladi. Masalan, *o‘zbek tilini rivojlantirish, milliy ta’lim, ona tilimizni o‘qitish, milliy adabiyot tadqiqi* kabi birikmalarda kasbiy faoliyat milliy-madaniy mazmun bilan birlashadi. Bu holatda kasbiy mansublik ma’lum bir faoliyat sohasi orqali, ijtimoiy mansublik esa milliy mansublik orqali ifodalanadi. Shu sababli bir xil kommunikativ birlik bir vaqtning o‘zida “qaysi kasbga mansub?” va “qaysi jamoaga mansub?” savollariga javob beruvchi lingvistik belgi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy va kasbiy profillarning kesishuvini aniqlashda baholash komponenti ayniqsa muhim. Korpusda ijobiy munosabat markerlarining 59,90 foizni tashkil etgani baholashning faol kommunikativ qatlam ekanini ko‘rsatgan. Biroq ushbu baholashning obyekti turlicha bo‘lishi mumkin: shaxs, kasb egasi, kasbiy faoliyat, tashkilot, jamoa yoki ijtimoiy qadriyat. Masalan, *Ustozlarimizga katta rahmat* jumlasida *ustozlarimiz* kasbiy va jamoaviy mansublikni, *katta rahmat* esa ijobiy baholash va minnatdorlikni ifodalaydi. Bitta kommunikativ birlikda uch qatlam – kasbiy nomlash, jamoaviy xoslanish va ijtimoiy baholash birlashadi.

Shuningdek, shaxsiy xoslanish va kasbiy identifikatsiya ham o‘zaro kesishishi mumkin. Men *o‘qituvchi sifatida..., mening tajribamda..., o‘z faoliyatimda...* kabi konstruksiyalarda birinchi shaxs shakli individual pozitsiyani, kasbiy nom yoki faoliyatga oid birlik esa professional mansublikni ifodalaydi. Bunday holatlarda muallif o‘z fikrini umumiy jamoa nomidan emas, kasbiy tajribaga ega individual subyekt sifatida taqdim etadi. Buning aksi ham kuzatiladi: *Biz, o‘qituvchilar, bu masalaga boshqacha qaraymiz.* Bu qurilmada *biz* jamoaviy xoslanishni, *o‘qituvchilar* kasbiy mansublikni, *boshqacha qaraymiz* esa guruhga xos kommunikativ pozitsiyani bildiradi. Demak, jamoaviy olmosh + kasbiy nom + guruh pozitsiyasi birikmasi kasbiy va ijtimoiy profillarning eng aniq kesishuv modellaridan biri sifatida ajraladi. Shu asosda ijtimoiy va kasbiy profillarning kesishuvini quyidagi uch asosiy modelga ajratish mumkin (Qarang: 4.3.1-jadval):

Kesishuv modeli	Asosiy lingvistik vositalar	Ifodalanadigan mazmun
Kasbiy + ijtimoiy	Kasbiy nom + qadriyat markerlari	Kasbga oid faoliyatning ijtimoiy bahosi
Kasbiy + identifikatsion	biz, -imiz + kasbiy birlik	Professional jamoaga mansublik
Kasbiy + shaxsiy	men, mening + kasbiy birlik	Shaxsiy tajriba asosidagi professional identifikatsiya
Kasbiy + baholash	Kasbiy nom + ijobiy/salbiy baho	Kasbiy shaxs yoki faoliyatga munosabat
Kasbiy + milliy	Kasbiy birlik + milliy-madaniy marker	Kasbiy faoliyatning milliy-madaniy mazmun bilan bog‘lanishi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жунусова Ж.Н., Тулегенова М.К. Социокультурная обусловленность лексических единиц молодежного социолекта // Вестник ЕНУ им. Л. Н. Гумилева. Сер.: Филология. – 2023. – № 1 (142). – С. 76-84.

2. Иголькина Н.И. Профессиональные сообщества в социальных сетях как неформальная система повышения квалификации педагогов английского языка // Профессиональное образование и социокультурная среда. – 2019.

3. Крысин Л.П. Социальная маркированность языковых единиц // Вопросы языкознания. – 2000. – № 4. – С. 26-42.

4. Морозова О.А. Классификация и систематика социальных диалектов // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Сер.: Гуманитарные науки. – 2016. – № 2. – С. 162-64.

5. Мухина Н.Б., Шайхутдинова Т.Н. Лингвистические маркеры выражения побудительной цели речевого действия говорящего // МНКО. – 2016. – № 6 (61).

6. Тимофеев В.Л. Язык как явление. Языковые единицы // Филологические науки. – С. 142-152.

7. Тимофеев В.П. Живые жаргоны и живучее просторечие // III Житниковские чтения: материалы Всерос. науч. конф. – Челябинск, 1999. – Ч. 2. – С. 128-134.